



BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKANI O'RGATISHDA INTEGRATSIYANING O'RNI

Sharipova Gulmira¹, Qurbonnazarova Ziyoda², Hakimova Nilufar³

Termiz Davlat Universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti talabalari

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6558860>

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 01-may 2022

Ma'qullandi: 10- may 2022

Chop etildi: 14- may 2022

KALIT SO'ZLAR

*integratsiya, fanlararo
integratsiya, ta'lim
samaradorligi, boshlang'ich
sinflarda matematika.*

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada fanlararo integratsiyani, boshlang'ich sinflarda matematikani o'rgatishda integratsion ta'limni yo'lga qo'yishning ayrim talab va shartlari yoritilgan bo'lib integratsion darsning umumiy jihatlari atroflicha bayon etiladi.

Xozirgi zamonning eng dolzarb masalalaridan biri har tomonlama kamolga yetgan, aniq, aqlan yetuk, komil insonni tarbiyalab voyaga yetkazishdan iborat bo'lib, bu vazifa, asosan, o'qituvchilarning zimmasiga qaratilgan. Boshqa fanlardan farqli o'laroq, matematika darslarida bunga ko'proq e'tibor qaratiladi. Bugungi kunda o'quvchilarda hisob-kitob ko'nikmalarini shakllantirish, ularni kundalik faoliyatda qo'llash, fanlarni o'rganish va ta'lim olishni davom ettirish uchun zarur bo'lgan matematik bilim va ko'nikmalar tizimini shakllantirish va rivojlantirish boshlang'ich ta'limdagi matematika fani o'qituvchilarning asosiy vazifalardan biridir. Bugungi kunda respublikamizda ta'lim tizimi tubdan isloh qilinmoqda. Barcha fanlardagi singari – Matematika fanini o'qitishda ham o'quvchining individual xususiyatlari, imkoniyatlarini hisobga olish, fanni o'qitishda turli pedagogik texnologiyalardan, integratsiyalardan foydalanish darslarni DTS talablariga muvofiq tashkil etishning

maqbul yo'li hisoblanadi. Matematika – kichik yoshimizdan tanishishni boshlaydigan keng ilm. Shu sabab uning 1-sinfdan dars sifatida o'qitilishi bejiz emas. Shu o'rinda mamlakatimiz rahbari, muhtaram prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev so'zlarini keltirib o'tamiz: „ Matematika hamma aniq fanlarga asos. Bu fanni yaxshi bilgan bola aqlli keng tafakkurli bo'lib o'sadi. Istalgan sohada muvoffaqiyatli ishlab ketadi. So'nngi yillarda respublikamiz boshlang'ich sinf maktablarida matematikani o'qitish butun sistemasida o'z ko'lami va ahamiyati jihatidan nihoyatda katta bo'lgan o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Maktab oldiga yangi vazifalarning qo'yilishi matematika o'qitish mazmunini tubdan o'zgarishiga olib keladi. Boshlang'ich sinflarda eng qiziq tashkil qilinadigan darslardan biri bu matematika fanidir. O'quvchilarning fikrlashlari va ularning zamon bilan hamnafas bo'lishlari uchun fanlarning otasi deb ataladigan matematika bilan yoshlik davrdanoq



qalbdan mehr ila tanishishlari lozim. O'z o'rnida matematika o'rganiladidan barcha fanlar bilan uzviy bog'liqdir. Aytishimiz mumkinki matematika fani o'rgatish jarayonida didaktik o'yinlardan foydalaniladi. Bu esa ba'zan bir darsning o'zida bir nechta fanlarga murojat qilishimizga to'g'ri keladi. Hozirgi kunda bitta darsning o'zida bir nechta fanlarni o'zaro uzviy bog'lash zamonaviy tilda integratsiya deb nomlanadi. „Integratsiya“ lotincha „integration“ – tiklash, to'ldirish, „integer“ – butun so'zidan kelib chiqqan. Integratsiya – fanlarga bilimlarni chuqurlashtirish va amalga oshirish, ularni shakllantirish bilan shug'ullanadi. U har xil turlar, usullar, uslublar fanlararo integratsiya obyektlari asosida tuzilgan. Endigina maktabga qadam qo'ygan boshlang'ich sinf o'quvchilariga fanlarni o'zaro bog'lab va farqli jihatdan asoslab o'rgatish bir muncha qiziq va o'quvchilarni diqqatini, e'tiborini tortadigan jarayon bo'lib xizmat qiladi. Boshlang'ich maktab ta'lim – tarbiyasini integratsiyalash muammosi nazariya uchun ham, amaliyot uchun ham muhim va dolzarbdur. Ta'limni integratsiyalashtirishdan ko'zlangan asosiy maqsad boshlang'ich maktabdanoq tabiat va jamiyat haqidagi tasavvurni yaxshi shakllantirish va ularning rivojlanishi qonunlariga o'z munosabatini bildirishga yo'naltirishdan iboratdir. Shuning uchun

ham kichik maktab o'quvchisi predmet yoki voqea-hodisalarni bir necha tomondan ko'rishi muhimdir. Bunga turli dars tushunchalariga ko'p marta qaytish, ularni chuqurlashtirish va boyitish, shu yoshga tushunarli bo'lgan muhim belgilarni aniqlash orqali erishish mumkin. Shunday qilib, yaxshi shakllangan tuzish va o'tkazish tartibiga ega bo'lgan, tarkibi shu o'quv predmetiga tegishli bo'lgan tushunchalar guruhi kiritilgan har qanday dars integratsiyaga asos qilib olinishi mumkin. Boshlang'ich ta'lim jurnallarida maktab ta'limini integratsiyalash muammosiga kata ahamiyat beriladi. L.N.Baxareva o'zining maqolasida „Integratsiya – differentsiya jarayonlari bilan birgalikda amalga oshirayotgan fanlarni yaqinlashtirish va bog'lash jarayoni bo'lib, yangi, butun, yaxlit bo'limlar yaratishga yordam beruvchi, fanlar bilan aloqalarni amalga oshiruvchi yuqori ko'rinishdir“ deb ta'kidlaydi.

Xulosa qilib aytganda, Ushbu maqola boshlang'ich sinf o'quvchilariga matematikani o'rgatishda integratsiyaning o'rniga asoslangan. Matematika darslarni integratsiyalash dars samaradorligini oshiradi va o'quvchilar birinchidan matematika faniga qiziqishi ortadi, ikkinchidan dunyoqarashi rivojlanadi, hamda hayotiy kompetensiyalarga ega bo'lib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Umumiy o'rta ta'limning Davlat ta'lim standartlari. Boshlang'ich ta'lim –Ta'lim taraqqiyoti|| jurnali, Toshkent –Sharq||, 1999, 7 - soni
2. L.Sh.Levenberg va boshqlar. –Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi Toshkent –O'qituvchi
3. N.U.Bikbaeva va boshqalar. –Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi Toshkent –O'qituvchi|| 1996 yil.
4. A.A.Skatkina –Metodika prepodaveniya matematiki v sredney shkole.|| Moskva –Prosveshchenie||.
5. "Inequalities. Theorems, Techniques and Selected problems" (Zdravko Cvetkovski).

